

PAULO KOELONING “ALKIMYOGAR” ASARIDA INSON ORZUSI
VA O‘ZLIKNI ANGLASH G‘OYASI

ИДЕЯ МЕЧТЫ И САМОПОЗНАНИЯ ЧЕЛОВЕКА В РОМАНЕ ПАУЛО
КОЭЛЬО «АЛХИМИК»

THE IDEA OF HUMAN DREAM AND SELF-DISCOVERY IN PAULO
COELHO’S NOVEL THE ALCHEMIST

Boltayeva Shaxnoza Sherali qizi

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM Pedagogika fakulteti O‘zbek tili va
adabiyoti 2-bosqich talabasi*

botirovashaxnoza80@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mashhur yozuvchi Paulo Koeloning “Alkimyogar” asarida inson orzulari, o‘z yo‘lini topish, ruhiy o‘rish va olam ruhini anglash kabi g‘oyalar tahlil qilinadi. Asar qahramoni Santyago misolida inson o‘z orzusiga ishonib, unga sodiq qolgan taqdirdagina haqiqiy baxtni topishi mumkinligi yoritiladi. Asar insonni fikrlashga, o‘z hayot yo‘lini qayta ko‘rib chiqishga va orzular sari qat’iyat bilan yurishga undaydi.

Kalit so‘zlar: Alkimyogar, orzu, o‘zlikni anglash, ruhiy o‘rish, hayot ma‘nosi.

Аннотация: В статье рассматривается философская идея поиска мечты и смысла жизни в романе Пауло Коэльо «Алхимик». Через образ Сантьяго автор показывает, что человек достигает истинного счастья лишь тогда, когда следует зову своего сердца и верит в собственные силы. Произведение побуждает читателя задуматься о предназначении, вере и внутренней гармонии.

Ключевые слова: Алхимик, мечта, самопознание, духовный рост, смысл жизни.

Annotation: This article explores the philosophical ideas of pursuing dreams and self-discovery in Paulo Coelho’s novel *The Alchemist*. Through Santiago’s journey, the author shows that true happiness comes when a person listens to their heart and remains faithful to their dream. The novel inspires readers to reflect on their purpose, faith, and inner harmony.

Keywords: *The Alchemist*, dream, self-discovery, spiritual growth, meaning of life.

Kirish: “Alkimyogar” — bu shunchaki badiiy asar emas, balki hayot saboqlarini o‘zida mujassam etgan falsafiy yo‘l-yo‘riqdir. Asarning bosh qahramoni Santyago ismli ispan cho‘ponining orzusi — Misr piramidalari yonida yashiringan xazinaning izidan borishdan boshlanadi. Ammo bu yo‘l nafaqat boylik izlash, balki o‘zlikni anglash, olam ruhini bilish yo‘lidir.

Santiago safar davomida ko'plab sinovlarga duch keladi: u umidini yo'qotadi, ammo har safar o'z orzusiga qaytadi. Bu esa inson hayotidagi muhim haqiqatni ko'rsatadi — har bir orzu va maqsad sinovsiz ro'yobga chiqmaydi. Muallif shu orqali orzuga sadoqat, umidsiz qolganda tushkunlikka tushmaslik, maqsad sari harakat sabr va matonatning, shu yo'sinda ishonchning kuchini ham ifoda etadi.

Asarda "O'zlikni anglash" tushunchasi asosiy g'oya sifatida ilgari suriladi. Bu — har bir insonning hayotdagi o'z yo'li, o'z vazifasi demakdir. Koelonning fikricha, inson faqat o'z yuragining ovozigacha quloq tutgan holda haqiqiy baxtni topa oladi. Shuning uchun asarda "Qachonki biror narsani chin dildan istasang, butun olam senga yordam beradi" degan mashhur jumla insoniyatga ishonch va qat'iyat baxsh etadi. Santyagoning har bir uchrashuvi — hayot darsi: u cho'l orqali o'tib, sukunatning kuchini his qiladi, alkimyogar bilan suhbat orqali esa ruhiy kamolotga erishadi. U tushunadiki, xazina aslida tashqarida emas, balki uning ichki dunyosida, orzulariga ishonishida yashiringan.

"Alkimyogar" asari inson qalbini uyg'otuvchi, ruhiy kuch bag'ishlovchi va orzular sari yo'l ko'rsatuvchi asardir. Santiago orqali muallif bizga shuni eslatadi: haqiqiy boylik tashqi narsalarda emas, balki o'z ichimizda yashiringan. Inson o'z orzusiga sodiq qolgan taqdirdagina hayot mazmunini topa oladi.

"Alkimyogar" har bir o'quvchiga o'z orzusini eslatadi va unga yetishish yo'lida to'xtamaslikka chaqiradi. Paulo Koelo o'z asarida diniy, falsafiy va ruhiy mavzularni uyg'unlashtirgan. U orzular sari yurish jarayonini hayotiy haqiqatlar bilan boyitadi. Inson o'z orzusiga intilar ekan, u o'zini, dunyoni va Yaratganni yaxshiroq anglaydi.

Xulosa: Ushbu asardan kelib chiqqan holda mening xulosam shundan iborat bo'ldiki, odamzod yaralibdiki u hayotga biror maqsad qo'yib, shu maqsad sari olg'a borishi hamda qancha qiyinchilik va sinovlarga duchor bo'lsada, uni amalga oshirish uchun keladi. "Alkimyogar" asarida shu talqinda fikr yuritiladi. Va bir narsaga e'tibor berishimiz ham joiz sanaladi. Santiago cho'pon bo'lsa-da, uning doimo qo'lida kitob bo'ladi. Demak shundan ko'rinadiki, harakat, intilish, orzu va maqsaddan tashqari, "ilm"ni ham nazardan chetda qoldirmasligimiz zarur. Bu asarni yosh kitobxonlarga tavsiya beraman, albatta ushbu kitobni o'qib chiqib o'zingizning qanday dunyoqarashingiz va ertangi kunga qo'yilgan maqsadingiz uchun harakat qilishingizni anglab yetasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Коэльо П. Алхимик. — Москва: Эксмо, 2015.
2. Qodirova N. "Zamonaviy adabiyotda ruhiy izlanish motivi". — Toshkent, 2022.
3. Coelho, P. The Alchemist. — HarperCollins Publishers, 1998.
4. Karimova S. "Falsafiy asarlarda orzu va ruhiy uyg'onish masalasi". — Samarqand, 2021.